



## SAKKOKIY VA UNING ADABIY MEROSI

**Nurmuhammedova Maftuna Hilol qizi***Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti “Turkalogiya oliy maktabi”  
kafedrası mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** *Sakkokiy (XV asr) — o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin vakillaridan biri, Alisher Navoiydan oldingi davrning yetuk shoiri. Uning haqiqiy ismi noma’lum bo‘lib, “Sakkokiy” taxallusi “pichoqchi” kasbiga ishora qiladi. Shoir asosan Samarqandda (Xalil Sulton va Mirzo Ulug‘bek davrida) ijod qilgan. Uning adabiy merosining asosiy qismini g‘azallar tashkil etadi, shuningdek, qasidalar ham muhim o‘rin tutadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Sakkokiy, o‘zbek mumtoz adabiyoti, g‘azal, qasida, ishqiy lirika, ma’rifatparvarlik, Navoiy ta’siri, Mirzo Ulug‘bek madhi, turkiy she’riyat, adabiy meros, XV asr o‘zbek she’riyati.*

Sakkokiy she’riyatida inson muhabbati, orzu-tilaklar, dard-alamlar, tabiat go‘zalligi, ishqiy iztiroblar (hijron va visol), axloqiy-ma’rifiy g‘oyalar hamda jaholat va nodonlikka qarshi adolatparvarlik ruhlari ustunlik qiladi. G‘azallarida ma’no va shakl uyg‘unligi, so‘z o‘yinlari, qochirimlar va badiiy san’atlar (tashbeh, istiora va boshqalar) mohirona qo‘llanilgan. Qasidalarida esa hukmdorlar (Xoja Muhammad Porso, Xalil Sulton, Mirzo Ulug‘bek, Arslon Xoja Tarxon) madhi orqali ma’rifatparvarlik va adolat g‘oyalari ochiqroq ifodalangan.

Sakkokiy o‘zbek adabiyotida qasida janriga asos solgan shoirlardan biri hisoblanadi. Uning ijodi zamondoshlari Lutfiy, Gadoiy, Atoiy kabi shoirlarga va keyinchalik Alisher Navoiy ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shoir turkiy tilning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanib, o‘zbek dunyoviy lirikasini mazmun va shakl jihatidan boyitgan. Uning “Devon”i bugungi kunda ham o‘rganilmoqda va o‘zbek klassik she’riyatining muhim qismi sifatida baholanadi. Sakkokiy ijodi insonparvarlik, go‘zallik va hayotga muhabbat g‘oyalarini tarannum etishi bilan ahamiyatlidir. Sakkokiy g‘azallari ham XV asr adabiyoti va tili yashirin imkoniyatlarini o‘zida namoyon qiluvchi manbalardan hisoblanadi. Mumtoz adabiyotimiz shoirlari ijodini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, Sakkokiy ijodi, g‘azallari tadqiq doirasidan biroz chetda qolib kelmoqda. Shuning uchun shoir g‘azallarining tahlilga tortilishi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Sakkokiy Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida yashab ijod qilgan shoirlardan biridir. Uning devoni qo‘l yozma holiday saqlanib qolgan. Shoir yozgan qasidalar uning qachon yashagani haqida ma’lumot beradi. Xususan, temuriyodalar Xalil Sulton bilan Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlagan qasidalar shoirning taxminan XIV-asrning 70-80-yillarida tug‘ilib, 15-asrning o‘rtalarida vafot etganidan ma’lumot beradi.





Alisher Navoiyning “Majolisun nafois”da yozganidan bo’lak “Xutbai da vovun”da ham Sakkokiy haqida shunday ma’lumotlarini qoldirgan: “...uyg’ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag’osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiykim, birining shirin ab’yoti ijtihodi Turkistonda beg’oyat va birining latif g’azaliyoti intishiori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur, ham devonlari mavjud bo’lg’ay”.

Alisher Navoiyning ushbu bahosi Sakkokiyning o’z zamonasida juda mashhur bo’lganini hamda she’riyatining xalq va ijod ahli orasida keng yoyilganini ko’rsatadi. Mazkur bahodagi quyidagi o’rinlar diqqatga sazovardir. Navoiy Sakkokiy nomini o’z ustoz Mavlono Lutfiydan ham avval keltirmoqda, ikkinchidan esa Sakkokiy asarlariga “shirin” sifatlovchisini keltirib, uning shuhrati Turkistonda yuksak ekanini ta’kidlamoqda. Yuqoridagi fikrlarga urg’u berishimizning sababi shuki, Navoiyning “Majolisun nafois” asaridagi Sakkokiy ijod haqidagi fikrlar tamoman o’zgachadir. “Mavlono Sakkokiy Movorounnahrindur, Samarqand ahli anga ko’p muttaqadiddurlar va bag’oyat ta’rifin qilurlar. Ammo faqir Samarqandda erkanda muarriklaridin bir necha tafahhus qildimkim, aning natoij ta’bidin bir nima angelayin: ta’rif qilganlaricha bizga zohir bo’lmadi” Mazkur bahoga ikki masalada alohida e’tibor zarurdir. Birinchisi shuki, Sakkokiy Movorounnahrlik, aniqrog’i esa Samarqandlik bo’lib unga Samarqand ahlining e’tiqodi kuchli bo’lgan. Bu fikrlar Navoiyning avvalgi bahosidagi ijobiy fikrlarga hamxonadir. Bir masalaga ikki xil qarash Navoiy ijodida kam ko’rinadigan hodisadir. Bu fikrlarning qaysi biri keyinroq aytilgan o’sha asos bo’lishi mumkin deya ular aytilgan yillarga e’tibor bersak, bunda ham bir to’htamga kelib bo’lmaydi. Chunki “Hazoniy-ulmaoniy” devoni 1461-98 yillarda yozilgan bo’lsa, “Majolisun nafois” asari ham 1491-yillarda yozilgan bo’lib, 1498-yilda qayta ishlangan. Navoiy 1499-yilda yozilgan “Muhokamat-ul lug’atayin” asarida Shohruh zamonasidagi turkiy tilda yozilgan shoirlarni sanaganda sanaganda Sakkokiy nomini birinchi tilga oldi. “Shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazimiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriydirlar”.<sup>71</sup> Sakkokiy ijodining ham o’z o’rni bor. Sakkokiyning hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi manbalar ko’p bo’lmagani singari mukammal ham emasdir. Shoir haqida ma’lumot beruvchi birinchi manba uning o’z devonidir. Devondan shoirning hayoti va ijodiga oid, ma’lumotlarni olish mumkin.

Har bir shoir ma’lum ma’noda o’z ashyorlariga “hasbu-holim” deb ko’rsatgan edi. Sakkokiy ham o’zining, turmush tarzi haqida qisman ma’lumotlar keltirib o’tgan. Devonidan yana shoir sevib kuylagan mavzular, uning dunyo qarashi boshqa shoirlarga bo’lgan munosabati badiiy mahorati haqida ma’lumot olish mumkin. Sakkokiy – adibning taxallusi. Uning nomi ma’lum emas. «Sakkokiy»ning ma’nosi «pichoqchi» demakdir. Bu adib shug’ullangan kasbga ishora. Sakkokiyning tug’ilgan va vafot etgan yillari ma’lum emas. Ammo u yozgan asarlar orasida bir necha qasidalar mavjud. Bu

<sup>71</sup> Hodi Zaripov “Navoiy zamondoshlari” Toshkent. 1948, 47-bet



qasidalar aniq bir tarixiy shaxslarga bag'ishlangan. Ular orasida Xalil Sulton, Arslon Xo'ja Tarxon, Xo'ja Muhammad Porso va Ulug'beklar bor.

Ma'lumki, Xalil Sultonning hukmronlik yillari 1405–1409- yillarga to'g'ri keladi. Arslon Xo'ja Tarxon Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarini ko'chirtirgan shaxs sifatida tarixda qolgan. Bu voqea 1444- yilda Samarqandda sodir bo'lgan edi. Mirzo Ulug'bekning hayot sanalari esa 1394–1449- yillarga oid. Agar qasida yozish ancha murakkab ish bo'lib, buning uchun muayyan ijodiy tajriba to'planishi zarurligini e'tiborga olsak, Xalil Sultonga bag'ishlangan qasida yozilgan paytlarda (1405–1409- yillar) Sakkokiyning qalami anchagina charxlanganini his etish mumkin. Demak, Sakkokiy XIV asrning ikkinchi yarmida, ehtimolki oxirgi choragida tug'ilgan. Sakkokiy o'zbek va fors-tojik tilidagi manbalarni puxta o'rganib chiqqan, ulardan o'z asarlarida ijodiy foydalangan. Adib asarlarini mutolaa qilish jarayonida Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Xo'ja Hofiz Sheroziy singari mashhur adiblardan ijodiy oziqlanganini his etish mumkin. Ammo turkiy tilda yaratilgan asarlar Sakkokiy ijodiga kuchliroq ta'sir ko'rsatgan.

Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi Sakkokiy ijodining gurkirab ketishida muhim omil bo'lgan. Sakkokiy – g'azalnavis shoir. Uning g'azallarida ishq, oshiqlik, hijron iztiroblari, visol lazzati, oshiq qalb kechinmalari juda ustalik bilan tasvirlanadi. Adibning Ulug'bek haqidagi qasidasi ham mashhur. Qasidada Ulug'bekning odil shoh, zakovatli inson sifatidagi qiyofasi mahorat bilan chizib berilgan. Bular Sakkokiyning o'zbek adabiyoti uchun qo'shgan munosib hissasidir.

Sakkokiy ijodi zamondoshlarimiz zavq-u ehtiromiga har doim sazovor bo'laveradi. Ayni shu xislatlari bilan u ulkan tarbiya maktabi bo'lib ham qolaveradi.

XV asrda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyatning XII-XIII asrlarga nisbatan keng taraqqiy etishi tasodifiy bir hol emas edi. Chunki, Amir Temur tomonidan asos solingan temuriylar davlatining poytaxti Samarqandga dunyodagi o'z kasbining mohir usta va naqqoshlari, shoir va xattotlari yig'ildi hamda keyingi davrlar uchun ham bu manba vazifasini o'tadi. Ulug'bek Mirzo davrida Movarounnahrda nafaqat aniq fanlar, balki badiiy adabiyot ham yuksak darajada taraqqiy etganligi qator manbalardan ma'lum. Hatto turkiy qasidachilikning taraqqiyoti bosqichi ham shu davrga to'g'ri keladi.

Sakkokiy XV asr qasidago'ylar ichida eng ko'p turkiy qasidalar yozgan shoir bo'lib, bizgacha shoir qasidalari va g'azallari jamlangan devonining 2 ta noto'liq, deyarli bir xil: Britaniya muzeyida (taxminan XVI asr o'rtalarida ko'chirilgan nusxa) 2079 raqamli qo'lyozmasi, Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida (1937 yil Shoislom kotib tomonidan ko'chirilgan nusxa) 7685 raqami ostida saqlanayotgan toshbosma nusxasi yetib kelgan.



### Adabiyotlar Ro'yxati.

1. Mamajanov A., Ibragimova Ye. Kinoya – subektiv munosabat ifodalash usullaridan biri // O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 2000. - №4. – B. 14-16.
2. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: Abdulla Qodiriy nashriyoti, 1999.
3. Muhammad A. Navoiyning nigohi tushgan. – T.: 1986.
4. Muxtorov A., Sanoqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. – T.: 1995.
5. Q.Muporov. Sakkokiy tanlangan asarlarini 1958-yilda, 1988-yilda “Hayot vasfi” kitobi.
6. Qilichev Ye. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – T.: Fan, 1982.